

SAMANDAR VOHIDOV G'AZALLARINING MAVZULAR KO'LAMI VA BADIY JILOLARI

Filologiya fanlari
Narziyeva Saodat Dilmurod qizi
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada o'zbek mumtoz adabiyotdagi aruzning zamonaviy talqinlari, Samandar Vohidovda aruziy she'rlar ijod etish maylini shakllanishi va uning taraqqiyoti kabilar tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье анализируются современные интерпретации аруза в узбекской классической литературе, становление поэзии аруз Самандаром Вохидовым и ее развитие.

Abstract: The article analyzes modern interpretations of aruz in Uzbek classical literature, the formation of aruz poetry by Samandar Vohidov and it's development.

Kalit so'zlar: aruz ilmi, qofiya ilmi, ramali musammani maqsur, bag'ishlov, g'azal, qasida, muxammas, masnaviy, mumtoz poetika.

Ключевые слова: Наука аруз, наука ритмы, рамал мусаммани максур, посвящение, газель, касыда, мухаммас, маснави, классическая поэтика.

Key words: The science of aruz, the science of rhyme, ramali musammani maksur, dedication, ghazal, qasida, mukhammas, masnavi, classical poetics.

She'riyat inson ruhiyatining kaliti. Ularda yoritilgan mavzular ko'lami, mafkuraning ta'siri, badiiy saviyasi masalasida ham turfa xillik ko'zga tashlandi. Shaklan barmoq vazniga asoslangan she'rlarda yangi zamonni, yangi zamon kishisining o'y-xayollarini, ichki kechinmalari (ba'zan ijtimoiylik kasb etgan kechinmalari) kuylangan bo'lsa, mumtoz she'riyatning uzoq yillik tajribasi bo'lgan aruzda diniy falsafiy qarashlar asosida she'riyatning go'zal namunalari dunyoga keldi. Zamonaviy she'riyatda mumtoz adabiyotining ma'lum janrlari, asosan: g'azal, qasida, qit'a, tuyuq, ruboiy, muxammas, musaddas, masnaviy, ta'rix; ta'rixiy qit'a, mufradot, sakkizlik va boshqa adabiy tur va janrlar rivojlandi. Bu davrda ijod qilgan shoirlardan Samandar Vohidov av u yaratgana aruziy she'rlarning o'rni beqiyos. Samandar Vohidovning aruzda she'rlar bitishda mustaqillikning ilk yilida salohiyatli shoir sifatida namoyon bo'lgani shoirning onasi xotirasiga bag'ishlangan "Yo'qotdim ayni Navro'zda" g'azali misolida ham kuzatiladi. 8 baytdan tarkib topgan ushbu g'azalning matlasiyoq fikrimizni dalillaydi:

Yo'qotdim ayni Navro'zda
Bu Navro'z kuzga aylandi,
Ruhafzo navbahor sensiz
Ayomajuzga aylandi⁶.

Samandar Vohidovda aruziy she'rlar ijod etish maylini shakllanishi va uning taraqqiyotini belgilashda shoir to'plamlaridan o'rin olgan she'rlarida uning yaratilish sanasining ko'rsatib borilgani muhim ahamiyat kasb etadi. Shoirning "Xayoling men bilan" to'plamidan bir qator g'azal va muxammaslari o'rin olgan. Ularning barchasida bu janrda yozilgan she'rlarning yozilish tarixi ko'rsatib o'tilgani kuzatilmaydi. Yozilish tarixi ko'rsatilgan g'azallarga e'tibor qaratsak, ular orasida "Ranjimay yutgay zamin boshiga ne otsa samo, qor yog'armi, o't yog'armi – qilmag'ay hech iddao"⁷ satrlari bilan boshaluvchi 8 baytli g'azal 1970-yilda ijod etilgani bilan e'tiborni tortadi. G'azalning maqtasida shoir ismi taxallus sifatida keltirilgan:

Ne kutar bilmam Samandar,
Bordan ayru aylagan –
Tangriga aylab tavallo

⁶ O'sha kitob. B.135.

⁷ Вохидов.С. Хаёлинг мен билан (Шеърлар, ғазаллар, мухаммаслар, достон). "Бухоро", 1997. Б.149-150.

Tole kutganday gado⁸.

Ushbu she'r g'azal janri talablariga to'la muvofiq holda ijod etilgan bo'lib, unda samoning yerga o't yoki qor yog'dirishi uning qahri sifatida talqin qilinadi. Yerning bu kabi jabrlarga ko'ksini ochib turishi manzaralariga e'tibor qaratilib, falak bir kunmas bir kun insofga kelib, yerga mehriyoning ko'kdan yog'ilishiga sababchi bo'lishi badiiy tasvirlanadi. Shu tariqa falakning qahrligi ma'shuqaga qiyoslanib, lirik qahramon ishqiga sadoqatli oshiq sifatida namoyon bo'ladi. G'azal so'ngida shoir ismining taxallus sifatida qo'llanilib, gado timsoli vositasida tamsilning keltirilishi shoirning ancha mahoratli ekanligidan dalolat beradi. Ushbu to'plamdagi Samandar Vohidovning 1973-yilda yozilgan *"Hayot goh dovdirab qolgay mening turfa savolimdan"* satri bilan boshlanuvchi 7 baytli, 1977-yilda yozilgan *"Kim birov dermish: jahonning bebaqo mehmoniman, Men degum: mehmon emasman, bu jahon mezboniman"* matlali 7 baytli, 1978-yilda yozilgan *"Otma ta'na toshini yor, pok dilim mehrobiga"* satri bilan boshlanuvchi 6 baytli g'azallari xususida ham shunday fikr bildirish mumkin. Shoirning boshqa g'azallarida o'tgan asrning 80-90-yillarida yozilgani qayd etilgan o'rinlar uchraydi. Shu bilan bir qatorda yozilish tarixi ko'rsatilmagan g'azallardagi ayrim ishoralar ham shoirda aruziy janrlarda ijod qilish mayli qachondan boshlanib, tizimi holga tushganini aniqlash imkonini ma'lum ma'noda taqdim etishi bilan ahamiyatli sanaladi. Aytilganlar nuqtayi nazaridan ijodkorning "Azmi g'azal" nomli 7 baytli she'ri e'tiborga loyiq:

Kel, g'azal, qalbimga ko'klam
Seliday to'lqin bilan,
Ruh qushi, parvozga shaylan
Shu'lavor yolqin bilan.
Jon qalam, sen yuzni endi
Bu bihisht ma'voga bur,
Qay tuvakgul yuz o'pishgay
Xonada epkin bilan?
Shuncha yil qayrildi tig'ing
Ozmi-ko'p she'r mashqida,
Yetdi, sirdosh bo'lgali payt,
Sirli bu ochun bilan.
Qaqragay ummon sari,
Talpinmasa irmoq agar,
Ey ko'ngil irmog'i, payvast
Bo'l bugun toshqin bilan.
Titragay dil, balki, ilk bor
Bu so'lim bo'ston aro,
Titraganday duch kelib
Farhod go'zal Shirin bilan.
Etma parvo, notavonbin
Jur'ating etsa mazax,
Aybmi kaptar kuch sinashsa,
Orzuda lochin bilan.
Bayt bitik beshikda o'sdim,
Tinglagan allam – g'azal,
Ne ajab, topsa jilo
Qabrim g'azal koshin bilan⁹.

Ushbu g'azal 1997-yilda chop etilgan "Xayoling men bilan" nomli she'riy to'plamning "G'azallar" sarlavhasidan so'ng o'rin olgan dastlabki she'r sanaladi. Unda g'azalga murojaat etilib, uni ko'lam seli va shu'lavor yolqinga qiyoslanishi, bu adabiy manzara uchun "ruh qushi" istiorasidan foydalanilganligi, gultuvak va irmoq timsollari bilan qo'llangan tamsillar shoirning

⁸ O'sha kitob. B. 150.

⁹ O'sha kitob. B.124.

g'azalnavislikda muayyan tajribaga ega bo'lganidan darak beradi. Tabiiyki, bu g'azalni, yuqorida keltirilgan, o'tgan asrning 70-yillarida yozilgan g'azallaridan oldin ijod etilgan, deyish qiyin. Negaki, g'azaldagi *“Shuncha yil qayrildi tig'ing ozmi-ko'p she'r mashqida”* misrasi bu g'azal shoirda tizimli holatda aruziy she'rlar ijod qilishga mayl uyg'onganiga ishora qiladi. “Azmi g'azal”ning shoir ijodida o'rni bo'lakcha ekanligini 4 jildli saylanmada ushbu g'azalga ham o'rin ajratilgani va uning yopilish sanasi 1990-yilning 24-iyuni¹⁰ tarzida aniq ko'rsatib o'tilganidan ham sezish mumkin. “Xayoling men bilan” to'plamidagi yozilish sanasi ko'rsatilgan g'azallarga e'tibor qaratilganda, to'plamdan o'rin olgan “Xavotir olma ko'nglim” [140-141], “Sovub borgay yoniq ko'nglim raqibdan ham, rafiqdan ham” [145], “Qiyomat qa'ridan qaytdi safardoshi – alam, armon” [147-148], “Yurak ko'ksimni tark aylab makondan bemakon bo'ldi” [156-157] singari g'azallarning 1988-yilda ijod etilgani ma'lum bo'ladi. Bu ishoralar shoirda tizimli holatda aruziy she'rlar ijod etishga mayl o'tgan asr 80-yillarining oxirida, o'zlikni anglash, milliy istiqloldan daragi sezilgan davrlarda yuz bergan, degan xulosaga kelishimizga asos bo'ladi. Biroq shoirning 1970-yilda yozilgan “Ranjimay yutgay zamin boshiga ne otsa samo, qor yog'armi, o't yog'armi – qilmag'ay hech iddao” matlali g'azalining uning aruzdagi ilk ijodi sifatida baholash to'g'ri bo'lmaydi. Chunki ushbu g'azalda ham, yuqorida ta'kidlanganidek, shoirning g'azalnavislikdagi mahorati yaqqol namoyon bo'lgani kuzatiladi. Shu bilan bir qatorda Samandar Vohidovning “Buxoro haqiqati” gazetasining 1971-yil 13-noyabr sonida “Ne umidda tufhayi ishq aylading bir tola soch” satri bilan boshlanuvchi muxammasining boshlanma va xotima bandlarining keltirilgani kuzatiladi. Bu davrda shoir 29-30 yoshlarda edi. Muxammas bitish shoirdan aruziy ilm va badiiyat sirlaridan chuqur xabardor bo'lishni talab etishidan kelib chiqadigan bo'lsak, shoirda g'azal singari aruziy janrlarda ijod qilish o'tgan asr 60-yillarida shakllanib, shu 10 yillikning oxirlarida o'zining samarasini ko'rsata boshlagan deyishimiz mumkin. Shoirning to'plamlarida bu yillarda yozilgani qayd etilgan g'azal namunalari kuzatilmaganini esa unda bitilgan she'rlarning sanasini belgilab borish ko'nikmasi keyin shakllangani va shoir barcha yozgan she'rlarini to'plamlariga kiritavermaganligi bilan izohlash mumkin. Negaki, Samandar Vohidovning hasbi hol mazmuni ifodalangan yuqorida keltirilgan g'azal va muxammaslarida unda aruziy she'rlarga oshnolik go'daklik davrida shakllangani ishoraar borligi bejiz emas. Qolaversa, o'tgan asr 60-yillarida o'ziga xos ijodi bilan tanila borgan Erkin Vohidovning ijodi Samandar Vohidovni befarq qoldirgan, deb bo'lmaydi. Aksincha, Erkin Vohidovning aksariyati 1967-1968-yillarda yozilgan g'azallaridan tarkib topgan “Yoshlik devoni”¹¹ Samandar Vohidovda shunday ijod bilan shug'ullanishiga mayl uyg'otgani tayin. Shu bois u o'tgan asr 70-yillari va 80-yillarining o'rtalariga qadar ayrim aruzda bitilgan g'azallari bilan ko'nglidagi shunday maylni badiiy izhor qilib borgan bo'lsa, 80-yillar yillar oxiriga kelib, unda aruzda ijod qilish tizimli holatga o'ta boshladi. 90-yillarning ikkinchi yarmidan shoir ijodining muayyan bir qismini aruziy she'rlar tashkil qildi. Uning fors-tojik tilida buxoriylar tomonidan turli asrlarda bitilgan aruziy she'rlarning tarjima qilishi bu boradagi ishtiyoqini yanada oshirdi. Shoir va tarjimon Samandar Vohidovda shallangan “aruzdan aruz yasash” “g'azalni g'azal bilan tarjima qilish” uslubi shoirning o'z aruziy she'rlar bitishida ham, taxmis muxammaslar ijod etishida ham nihoyatda qo'l keldi. Ta'kidlash lozimki, bunday tajribalar Samandar Vohidovni o'z davrida aruzda ham barakali ijod qilgan Erkin Vohidov, Jamol Kamol singari iste'dodli, bir qadar kamyob shoirlar qatoridan munosib o'rin egallashiga zamin hozirladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umida K. The Role of Teaching Compounds According to Types of Speech in Constructivism //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – T. 8. – C. 4-9.
2. Umida K. The ways of using constructivism to teaching phraseological units and vocabulary for efl //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 1-6. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/1325>

¹⁰ Воҳидов С. Кўнглимда олам сурати (Шеърлар, ғазаллар, дostonлар, таржималар). Сайланма, II жилд. “Бухоро”, 2004. Б. 88.

¹¹ Воҳидов Э. Танланган асарлар. –Тошкент: “Шарқ”, 2016. Б. 67-129.

3. Umida, Karimova. "The Role of Teaching Compounds According to Types of Speech in Constructivism." *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching* 8 (2022): 4-9. Retrieved from ISSN: 2795-739X.
4. Ochilovna K. U., Sameyevna M. Z. IMPROVING SPEAKING SKILL WITH THE HELP OF MODERN TECHNOLOGIES //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 9. – №. 12. – С. 367-369.
5. Хайруллаев, Х. З. (2012). Об иерархических отношениях между языковыми единицами. Вестник Челябинского государственного университета, (6 (260)), 134-137.
6. Хайруллаев, Х. (2008). Нутқ бирликларининг поғонали муносабати.
7. Bushuy, T., & Khayrullaev, K. (2022). Life of word during coronavirus. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(8), 19-28.
8. Хайруллаев, Х. (2019). Об особенностях изучения объекта речевой лингвистики. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (2 (71)), 17-20.
9. Шомуродова, Ш. Ж. (2016). ИЗУЧЕНИЕ СЕМАНТИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ПРИ ОДНОСТРУКТУРНОЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ ДЕРИВАЦИИ (НА МАТЕРИАЛЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА). *Ученый XXI века*, (2-4).
10. Шомуродова, Ш. Ж. (2017). КОНТЕКСТУАЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ СТИЛИСТИЧЕСКОГО ЗНАЧЕНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ. *Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. 31 окт.–3 нояб. 2017 г./Челяб. гос. ин-т культуры; сост. ЕВ Швачко.– Челябинск: ЧГИК, 2017.–394 с. ISBN 978-5-94839-629-3.*